O'ZBEKISTONDA SUV RESURSLARIDAN NOTO'G'RI FOYDALANISHNING IQTISODIY OQIBATLARI

Rajabov Bobir Hamza o'g'li
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti 1- bosqich talabasi
boburrajabov466@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22895615

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston mintaqasida suv resurslaridan foydalanishning hudular aro notekis taqsimlanish sharoitida iqtisodiy samradorlikka ta'siri kompleks tahlil qilingan. Markaziy Osiyoning qurg'oqchil iqlimi sharoitida suv resurslari mamlakat iqtisodiyotining asosiy drayverlari bo'lgan qishloq xo'jaligi va bir qator sanoat tarmoqlarida strategik resurs hisoblanadi. Tadqiqot davomida so'ngi yillarda suv resurslaridan foydalanish madaniyatining pastligi, eskirga sug'orish tizimlari va resurslarni boshqarishda raqamli monitoring yetishmasligi nafaqat ekologik inqirozlarni keltirib chiqarayotgani, balki yalpi ichki mahsulot(YaIM) o'sish sur'atlariga ham to'sqinlik qilayotgani ilmiy asoslab berilgan.

Maqolada suv tanqisligining iqtisodiy koeffitsiyentlarga ta'sirini baholashda statistik ma'lumotlar, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Tahlillar natijasida hududlarining o'ziga xos iqlimiy va iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish , suv resurslarini boshqarishda bozor mexanizmlarini qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: suv resurslari, iqtisodiy samaradorlik, qishloq xo'jaligi, ekologik muammo, iqtisodiy o'sish, bozor mexanizmlari.

Kirish

O'zbekiston sharoitida suv resurslari mamlakatning baraqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlivchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligi katta hajmda suv resurslariga tayanadi va mavjud suv zaxiralarining asosiy iste'molchisi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, suv resurslarining hududlar bo'yicha notekis taqsimlanganligi, ularning sezilarli qismi transchegaraviy manbalarga bog'liqligi hamda iqlim o'zgarishi ta'sirida suv hajmining kamayib borayotgani ushbu resursdan samarali foydalanish masalasini yanada dolzarb etmoqda.

So'nggi yillarda suv taqchilligi bilan bog'liq muammolar keskinlashib borayotgani kuzatilmoqda. Prognozlarga ko'ra, 2030-yilga borib O'zbekistonda suv yetishmovchiligi yiliga 7 milliard kub metrga yetishi, 2050-yilga kelib esa ushbu ko'rsatkich 15 milliard kub metrga yetishi mumkin[1] . Bu holat mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlariga, ayniqsa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimolini kuchaytiradi. Bundan tashqari, yerosti suvlarining kamayishi, sug'orish tizimlaridagi katta yo'qotishlar hamda an'anaviy ya'ni "jo'yakli" sug'orish usullarining hanuz keng qo'llanilishi mavjud muammoni yanada chuqurlashtirmoqda.

Suv resurslari bilan bog'liq muammolar faqat tabiiy omillar bilan cheklanib qolmay, balki iqtisodiy va institutsional jihatlar bilan ham uzviy bog'liqdir. Jumladan, suvdan foydalanish samaradorligining pastligi, zamonaviy texnologiyalarning yetarli darajada joriy

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-son Farmoni. – [Elektron resurs]. URL: https://lex.uz/docs/4892946 (Murojaat sanasi: 03.04.2026).

etilmagani va nazorat mexanizmlarining sustligi iqtisodiy yo'qotishlarga olib kelmoqda. Shu munosabat bilan davlat tomonidan suv resurslaridan foydalanishni tartibga solish va rag'batlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2027-yildan boshlab suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish darajasiga bog'lash, hamda "aqlli" suv hisoblash tizimlarini joriy etish kabi choralar belgilangan[2] .

Bundan tashqari, O'zbekistonning transchegaraviy suv resurslariga yuqori darajada qaramligi ham muhim xavf omili hisoblanadi. Mamlakat suv resurslarining katta qismi tashqi manbalardan shakllanadi, bu esa qo'shni davlatlarda amalga oshirilayotgan suv siyosati va loyihalarga sezilarli darajada bog'liqlikni keltirib chiqaradi. Xususan, Amudaryo havzasida amalga oshirilayotgan yirik loyihalar, jumladan, qo'shni Afg'onistonda Qo'shtepa kanali qurilishi kabi yangi irrigatsiya inshootlari, kelgusida suv hajmining sezilarli qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda suv resurslaridan noto'g'ri va samarasiz foydalanishning iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilishdan iboratdir. Tadqiqot doirasida suvdan foydalanish samaradorligi, uning qishloq xo'jaligi hosildorligiga ta'siri hamda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samarasi o'rganiladi. Shuningdek, mavjud muammolarni bartaraf etish va suv resurslaridan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi

Suv resurslarini boshqarish va undan samarali foydalanish masalalari ko'plab xalqaro va mintaqaviy tadqiqotlarda o'rnatilgan. Markaziy Osiyoda suv resurslaridan noto'g'ri foydalanish oqibatlari haqida Philip Micklin tadqiqotlarida Orol dengizi inqirozi misolida ekolgik va iqtisodiy zararlar tahlil qilingan[3] . Mintaqada suv resurlarini boshqarish masalalari esa Vladimir Dukhovny va Victor Sokolov tomonidan o'rnaginilib, ular integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish (IQRM) yondashuvi samarali yechim bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan[4] . Bundan tashqari, Iskandar Abdullayev tadqiqotlarida Markaziy Osiyoda suv boshqaruv tizimining institsional muammolari va islohot zarurati ko'rsatib berilgan[5] .

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tadqiqotlardan ham suvdan samarali foydalanish iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liqligi ko'rdsatilgan. Jumladan, World Bank va Food and Agriculture Organization hisobotlarida O'zbekistonda suvning asosiy qismi qishloq xo'jaligiga iste'mol qilinishi va an'anaviy sug'orish suv isrofini oshirishi qayd etilgan. Bundan tashqari , Intergovernmental Panel on Climate Change tadqiqotlari iqlim o'zgarishi tufayli kelajakda Markaziy Osiyoda suv tanqisligi yanada kuchayishi mumkinligini ko'rsatadi.

Global miqyosdagi tadqiqotlarda suv resurslari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik ham keng yoritilgan. Xususan, Peter Gleick suv resurslaridan oqilona foydalanish barqaror rivojlanishning muhim omili ekanligini asoslab bergan[6]. Organisation for Economic

---

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-apreldagi "Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son Qarori. – [Elektron resurs]. URL: https://lex.uz/uz/docs/6421319 (Murojaat sanasi: 03.04.2026).

[3] Micklin P. The Aral Sea disaster // Annual Review of Earth and Planetary Sciences. – 2007. – Vol. 35. – Pp. 47–72. DOI: 10.1146/annurev.earth.35.031306.140120.

[4] Dukhovny V. A., Sokolov V. I. Lessons on cooperation building to manage water conflicts in Central Asia // Water International. – 2011. – Vol. 36. – No. 3. – Pp. 314–325. DOI: 10.1080/02508060.2011.585449.

[5] Abdullaev I., Rakhmatullaev S. Transformation of water management in Central Asia: from State-centric toward a combined approach // International Journal of Water Resources Development. – 2013. – Vol. 29. – No. 3. – Pp. 475–490. DOI: 10.1080/07900627.2013.795036.

[6] Gleick P. H. Global freshwater resources: Soft-path solutions for the 21st century // Science. – 2003. – Vol. 302. – No. 5650. – Pp. 1524–1528. DOI: 10.1126/science.1089967.

Cooperation and Development hisobotlarida suv resurslarini iqtisodiy boshqarish va taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi ta'kidlangan. Shuningdek, Intergovernmental Panel on Climate Change tadqiqotlarida iqlim o'zgarishi natijasida suv resurslari hajmining kamayishi va bu holat kelajakda suv tanqisligi muammosini yanada keskinlashtirishi mumkinligi qayd etilgan. Shuning uchun suv resurslaridan oqilona foydalanish va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish masalasi bugungi kunda muhim ilmiy va iqtisodiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli maqolada yangicha suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish masalasi va cheklangan resurslar sharotida cheklanmagan ehtiyojlarni qondirish eng kamxarj yo'llar taklif etilgan.

Metadologiya

Mazkur tadqiqotda suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilishda **kompleks yondashuv** qo'llanildi. Tadqiqot davomida statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Mavjud ilmiy tadqiqotlar suv resurslarini boshqarish va ulardan samarali foydalanish masalalarini keng yoritgan bo'lsada, O'zbekiston sharoitida suv resurslaridan noto'g'ri foydalanishning **aniq iqtisodiy oqibatlari** yetarli darajada chuqur tahlil qilinmagan. Xususan, suv yo'qotishlari, qishloq xo'jaligi hosildorligi va umumiy iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab tadqiqotlarda umumiy darajada ko'rib chiqilgan, biroq empirik asosda yetarli darajada baholanmagan.

Bundan tashqari, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda suvdan foydalanish bilan bog'liq soliq va rag'batlantirish mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligi bo'yicha kompleks yondashuv yetishmaydi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda O'zbekiston sharoitida suv resurslaridan noto'g'ri foydalanishning iqtisodiy ta'sirini aniqroq ochib berishga va mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga harakat qilaman.

Tahlillar va natijalar

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda suv resurslaridan foydalanish samaradorligi hududlar kesimida sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi. Jadvalga ko'ra, ayrim viloyatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer (Qoraqalpog'istonda 0,46 ga) va suv ta'minoti orasida keskin tafovutlar mavjud. Misol uchun, Toshkent viloyatida 1 gektar sug'oriladigan yerga atigi **9,7 ming m³** suv to'g'ri keladi, Qoraqalpog'istonda esa **18,9 ming m³** (1-jadval). Bu ko'rsatkichlar suvdan foydalanish samaradorligidagi keskin farqni anglatadi. Aholi boshiga suv ta'minoti bo'yicha ham Farg'ona va Namangan viloyatlarida eng past (mos ravishda **0.73 va 1.72 ming m³**), Xorazm va Buxoroda esa nisbatan yuqoridir. Bunday hududiy nomuvofiqlik hosildorlik va daromad farqlarini kuchaytiradi, chunki kam suv bilan ko'proq yer sug'orishga majbur bo'lgan agrar sektor iqtisodiy zarar ko'radi.

Hududlar bo'yicha yer va suv bilan ta'minlanganlik darajasi (1-jadval)

Hududlar nomi	Aholi jon boshiga sug'oriladigan yer maydoni, ga	Aholi jon boshiga suv resurslari, ming m³	1 gektar sug'oriladigan yerga to'g'ri keladigan suv, ming m³
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,46	6,8	18,9
Andijon	0,24	1,66	18,9
Buxoro	0,25	3,21	19,2
Jizzax	0,35	3,25	11,1
Qashqadaryo*	0,36	3,24	20,6
Navoiy	0,19	2,98	20,6
Namangan	0,19	1,72	20,6

Samarqand	0,21	1,75	20,6
Surxondaryo	0,2	2,34	20,6
Sirdaryo	0,58	5,86	20,6
Toshkent	0,19	1,42	20,6
Farg'ona	0,17	0,73	20,6
Xorazm	20,6	20,6	20,6

Amaliy tahlillar an’anaviy (jo’yakli) sug’orish tizimlari orqali suvning katta qismi yo’qotilishini ko’rsatadi. Natijada, sho’rlash va tuproq unumdorligining pasayishi o’rin oladi, bu esa qishloq xo’jaligi mahsulotlari hosildorligining tushishiga olib keladi. Masalan, Micklin (2007) Orol dengizi misolida suvdan haddan tashqari foydalanishning ekotizimga va mahalliy iqtisodiyotga salbiy ta’sirini tasvirlagan. Ayni vaqtgacha O’zbekiston iqtisodiyotiga qo’shni davlatlardan keluvchi suv hajmi taxminan 80% ekanligi, transchegaraviy qaramlikka asoslanadi. Qo’shni Afg’onistondagi Qo’shtepa kanali qurilishi va iqlim o’zgarishi fonida suv hajmi yanada qisqarishi prognoz qilinmoqda. Buni hisobga olgan holda, 2030 yildagi **7 milliard m³**, 2050 yildagi **15 milliard m³** suv tanqisligi prognozi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy tahdiddir.

Yo’nalishlar bo’yicha tahlillar shuni ko’rsatadiki, 2019–2023 yillarda O’zbekistonda umumiy suv iste’moli **53,3 km³** dan **56,8 km³** gacha oshgan. Ushbu o’sishning asosiy qismi qishloq xo’jaligiga to’g’ri kelib, u har yili umumiy suv iste’molining taxminan **90 foizini** tashkil etadi (**48,5 km³ dan 51,0 km³ gacha**). Bu esa irrigatsiya tizimlarining past samaradorligi va suvdan foydalanishning ekstensiv xarakterga ega ekanligini ko’rsatadi. Maishiy va sanoat sektorlarida ham o’sish kuzatilgan bo’lsa-da, ularning ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda.

Yillar kesimida suv iste'moli ko'rsatkichlari(2-jadval)

Yil	Qishloq xo‘jaligi	Sanoat	Maishiy iste’mol	Jami suv iste’moli
2019	**48,5**	**1,7**	**3,1**	**53,3**
2020	**49**	**1,8**	**3,3**	**54,1**
2021	**50,2**	**1,9**	**3,4**	**55,5**
2022	**51,3**	**2**	**3,5**	**56,8**
2023	**51**	**2,1**	**3,7**	**56,8**

Hududlar kesimida suv taqsimoti ham notekisdir. Masalan, 1 gektar yerga to’g’ri keladigan suv hajmi Toshkent viloyatida **9,7 ming m³**, Xorazmda esa **20,6 ming m³** ni tashkil etadi. Bu tafovut suv resurslari va yer maydonlari o’rtasida nomutanosiblik mavjudligini bildiradi va ayrim hududlarda ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Umuman olaganda Hukumat tomonidan ko’rilishi kerak bo’lgan bir qancha chora-tadbirlar mavjud. Jumladan, har bir tuman bo’ylab **suv monitoring markazlari** tashkil etish sababi suv isrofi va taqsimotni nazorat qilish uchun; sug’orish infratuzilmasini zamonaviylashtirish uchun **maxsus jamg’arma** yaratilishi lozim, masalan, markazlashgan fond orqali investorlar jalb qilish mumkin; qishloq xo’jaligi xodimlari va fermerlar uchun suvdan oqilona foydalanish bo’yicha **seminar treyning o‘tkazish**; **soliq va subsidiyalar tizimi** suv tejovchi texnologiyalarni joriy etgan fermerlar uchun rag’batlantiruvchi qilib qayta ko‘rib chiqish kabi.

Shu bilan birga eng asosiy tamoyillardan biri bu sug'oriladigan yerlarda suv sarfini to'g'ridan-to'g'ri o'lchash uchun **"aqlli" suv hisoblagichlari** o'rnatilishi majburiy etilishidir.

Olingan natijalar suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va davlat siyosatini muvofiqlashtirish zaruriyatini ko'rsatadi. O'zbekistonning 2027-yildan boshlanadigan siyosati (Prezident qarori) suv tejovchi texnologiyalarni joriy etgan fermerlarga soliq imtiyozlari berilishini, aks holda soliq stavkasi oshirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, 2027-yildan sholi sug'orish va baliqchilikda «aqlli» suv o'lchash qurilmalari majburiy joriy qilinishi belgilangan. Bu choralar suvni tejash va resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantirishga qaratilgan.

Xulosa

Olib borilgan tahlillardan xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston sharoitida suv resurslaridan foydalanish sistemasi hozirgi kunda iqtisodiy samaradorlik talablariga to'liq javob bermayapti. Ma'lumki suv iste'molining asosiy qismi qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi va mavjud irrigatsiya usullarining samarasizligi resurslarning katta yo'qotilishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, suv resurslarining hududlar kesimida notekis taqsimlanishi va mamlakatning tashqi suv manbalariga yuqori darajada qaramligi muammoni yanada murakkablashtrimoqda. Natijalar shuni anglatadiki, suv resurslaridan oqilona foydalanish faqat texnik choralar bilan emas, balki iqtisodiy va institutsional yondashuvlar orqali ham ta'minlanishi lozim. Xususan, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, suvdan foydalanishni monitoring qilish tizimini takomillashtirish va rag'batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmlarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, suv resurslaridan samarali foydalanish O'zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2020). O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida (PF-6024-son). Lex.uz. https://lex.uz/docs/4892946
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2023). Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida (PQ-112-son). Lex.uz. https://lex.uz/uz/docs/6421319
3. Abdullaev, I., & Rakhmatullaev, S. (2013). Transformation of water management in Central Asia: from State-centric toward a combined approach. *International Journal of Water Resources Development*, 29(3), 475-490. https://doi.org/10.1080/07900627.2013.795036
4. Asian Development Bank. (2022). *Water sector assessment in Uzbekistan*. https://www.adb.org/publications
5. Dukhovny, V. A., & Sokolov, V. I. (2011). Lessons on cooperation building to manage water conflicts in Central Asia. *Water International*, 36(3), 314-325. https://doi.org/10.1080/02508060.2011.585449
6. Food and Agriculture Organization. (2021). *Water use in agriculture in Central Asia*. https://www.fao.org
7. Gleick, P. H. (2003). Global freshwater resources: Soft-path solutions for the 21st century. *Science*, 302(5650), 1524-1528. https://doi.org/10.1126/science.1089967
8. Intergovernmental Panel on Climate Change. (2021). *Climate Change 2021: Impacts and Adaptation*. https://www.ipcc.ch
9. International Water Management Institute. (2020). *Irrigation efficiency in Central Asia*. https://www.iwmi.cgiar.org
10. Micklin, P. (2007). The Aral Sea disaster. *Annual Review of Earth and Planetary Sciences*, 35, 47-72. https://doi.org/10.1146/annurev.earth.35.031306.140120

11. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2023). *Suv resurslari va ulardan foydalanish statistikasi*. https://stat.uz
12. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi. (2022). *Yillik hisobot*. https://water.gov.uz
13. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2020). *Water governance in Eastern Europe, Caucasus and Central Asia*. https://www.oecd.org
14. Rakhmatullaev, S., & Huneau, F. (2013). Groundwater resources in Central Asia. *Environmental Earth Sciences*, 68(2), 307-324. https://doi.org/10.1007/s12665-012-1962-0
15. Sehring, J. (2009). Path dependencies and institutional bricolage in post-Soviet water governance. *Water Alternatives*, 2(1), 61-81. http://www.water-alternatives.org
16. UNESCO. (2020). *World Water Development Report*. https://www.unesco.org
17. United Nations Development Programme. (2020). *Water security in Central Asia*. https://www.undp.org
18. United Nations Environment Programme. (2019). *Global Environment Outlook*. https://www.unep.org
19. World Bank. (2019). *Water management in Uzbekistan*. https://www.worldbank.org
20. World Bank. (2022). *Uzbekistan Country Climate and Development Report*. https://www.worldbank.org
21. Xo’jamqulov, A. (2021). O’zbekistonda suv resurslaridan foydalanish samaradorligi. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali*.
22. Yusupov, S. (2022). Irrigation reforms in Uzbekistan. *Central Asian Economic Review*.
23. Zakirov, B. (2020). Suv resurslarini boshqarish muammolari. *Iqtisodiyot va innovatsiyalar*.